

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 1



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-1>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабилова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Аликариева Аълохон Нуриддиновна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
и.о. доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)  
**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тилипов Файзулла Саидович**  
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдуллаев Сардорбек Усмонхужаевич**  
доктор философии по социологическим наукам, доцент  
(Узбекистан)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)  
**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: @devdasdesign

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Alikariyev Nuriddin</b> OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI MEHNAT SAMARADORLIGINING TAHLILI.....	4
<b>2. Parmanov Farxod, Xudayarov Ixomjon</b> SOTSIAL MOBILLIK PARADIGMASINING ETNOMADANIY INTEGRATSIYALASHUV TENDENSIYALARI.....	12
<b>3. Турсунов Диёр, Сеитов Азамат</b> ВЛИЯНИЕ ИНТЕРНЕТ-СМИ НА ПОЛИТИЧЕСКУЮ СОЦИАЛИЗАЦИЮ (НА ПРИМЕРЕ ПРОТЕСТОВ В РОССИИ 2017-2018 ГОДА).....	19
<b>4. Sog'inov Nurmat</b> AMALIYOTCHI PSIXOLOG MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI.....	29
<b>5. Zaitov Elyor</b> MAHALLANING O'RGANILISHIDA TARIXIY YONDASHUV.....	38
<b>6. Алексеева Виктория</b> СОЦИАЛЬНАЯ МОБИЛЬНОСТЬ ЖЕНЩИН В УСЛОВИЯХ ФОРМИРУЮЩЕГОСЯ ГЕНДЕРНОГО ПОРЯДКА ДОСТИЖЕНИЯ РАВЕНСТВА.....	49
<b>7. Kayumov Kaxramon</b> DEVIANT HULQ-ATVOR PROFILAKTIKASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	57
<b>8. Abdullaev Akmal Gadaymurodovich</b> SIVILIZATSION YONDASHUV SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARNING METODOLOGIK BAZASI SIFATIDA.....	63
<b>9. Mahammadjanov G'olibjon</b> GLOBALLASHUV DAVRIDA JAMIYATDA IJTIMOIIY ONG TIZIMIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARI (Sinergetik yondashuv).....	71
<b>10. Qozoqov Sobirjon</b> O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING IJTIMOIIY OMILLARI.....	76
<b>11. Нуруллаева Джамиля</b> СПОРТ КАК СОЦИАЛЬНОЕ ЯВЛЕНИЕ.....	83
<b>12. Mahammadjanov G'olibjon</b> JAMIYATDA IJTIMOIIY ONG TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR: SOTSIOLOGIK YONDASHUV VA TAHLIL.....	90

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Zaitov Elyor,**


О'zbekiston Milliy universiteti

“Sotsiologiya” kafedrası mudiri

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

e-mail: e.zaitov@nuu.uz

### MAHALLANING O'RGANILISHIDA TARIXIY YONDASHUV

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.11052529>

#### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, mavzu doirasidagi adabiyotlarni tarixiy yondashuv nuqtai nazardan o'rganish mahallaning mohiyati, tarixi va evolyutsiyasini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan mavzu tarixiy yondashuvni alohida turkumlarga bo'lib tahlil qilishda, xalq turmush tarzi bilan bog'liq oila va jamoa hayotining turli masalalari, avvalambor, Sharq xalqlari tarixi hamda madaniyatiga oid manbalarda o'z ifodasini topganligini qayd qilish o'rinli. Mahallaning mohiyati, shakllanish tarixi va rivojlanishiga oid mavzuda o'zbek xalqining bevosita jamoaviy turmush tarzi, madaniyati haqidagi ma'lumotlar negizida XIX asr oxiri XX asr boshlariga oid manbalarni o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** mahalla, fuqarolar, tarixiy yondashuv, jamoa, oqsoqollar, millat, umumxalq, oliy ta'lim, ma'naviyat, qo'ni-qo'shni, qon-qarindoshlik, shahar, aholi, manba, evolyusiya, sotsiologiya.

**Зайтов Элёр,**

Национальный университет Узбекистана

Заведующий кафедрой «Социология»

доктор философии по социологическим наукам, доцент

e-mail: e.zaitov@nuu.uz

### ИСТОРИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ИЗУЧЕНИЮ МАХАЛЛИ

#### АННОТАЦИЯ

Исторический подход имеет важное значение в изучении природы, истории и эволюции махалли. Поэтому уместно отметить, что при анализе темы различные вопросы семейно-общественной жизни, связанные с образом жизни народа, прежде всего, выражаются в источниках, связанных с историей и культурой страны. По теме природы, истории и развития махалли изучены источники конца XIX - начала XX века, обобщены сведения о непосредственном коллективном быте и культуре узбекского народа.

**Ключевые слова:** соседство, граждане, исторический подход, сообщество, старейшины, нация, высшее образование, духовность, махалля, кровное родство, город, население, ресурс, эволюция, социология.

**Zaitov Elyor,**  
National University of Uzbekistan  
Head of the department “Sociology”  
Doctor of philosophy  
in sociological sciences, associate professor  
e-mail: e.zaitov@nuu.uz

## HISTORICAL APPROACH TO THE STUDY OF MAHALLA

### ABSTRACT

The historical approach is important in studying the nature, history and evolution of mahallas. Therefore, it is appropriate to note that when analyzing the topic, various issues of family and social life related to the way of life of the people are, first of all, expressed in sources related to the history and culture of the country. On the topic of nature, history and development of the mahalla, sources from the late 19th - early 20th centuries were studied, information about the direct collective life and culture of the Uzbek people was summarized.

**Key words:** neighborhood, citizens, historical approach, community, elders, nation, higher education, spirituality, mahalla, consanguinity, city, population, resource, evolution, sociology.

### KIRISH

Millatimiz turmush tarzida mahalla faoliyatini tarixiy yondashuv nuqtai nazardan o‘rganishga hozirgi kunda ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega masala sifatida qaralmoqda. Kishilarning o‘zaro uyushqoqligi asosidagi o‘ziga xos jamoaviy hayot tarzi va o‘zaro munosabatlari insoniyat tarixining qadimgi davrlariga borib taqaladi. Shu o‘rinda bunday o‘zaro munosabatlar tarixiy-etnografik adabiyotlarda muayyan tarzda o‘z ifodasini topganligini qayd etish zarur.

Mavzu doirasidagi adabiyotlarni tarixiy yondashuv nuqtai nazardan o‘rganish mahallaning mohiyati, tarixi va evolyutsiyasini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan mavzu tarixiy yondashuvni alohida turkumlarga bo‘lib tahlil qilishda, xalq turmush tarzi bilan bog‘liq oila va jamoa hayotining turli masalalari, avvalambor, Sharq xalqlari tarixi hamda madaniyatiga oid manbalarda o‘z ifodasini topganligini qayd qilish o‘rinli.

### METODOLOGIYA

Xususan, ushbu masalaga oid qarashlar, o‘z navbatida, qadimgi zardushtiylik diniga oid adabiyotlarda ham uchrashi tasdiqlangan. Unda o‘sha davrda zardushtiyalar turmush tarzi, kishilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid fikrlar jamiyatdagi ijtimoiy-falsafiy qarashlarning takomillashishi uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan [1, – C.89-92]. Ya‘ni, “Avesto” da jamiyatning birlamchi ijtimoiy asosi bo‘lgan qo‘ni-qo‘shni jamoa (vaeshvadata) deb atalgan va ular ma‘lum hudud doirasida amal qilgan [2, – C.89]. Zardushtiyalar jamoasida kishilar turmush tarziga ko‘ra bir qancha toifalarga bo‘lingan bo‘lib, ularning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi “Avesto”ga oid adabiyotlarda qayd etilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar tadqiqotchilar ishlarida uchraydi [3, – B.10].

Ilk o‘rta asr mualliflaridan biri Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asari o‘sha davr an‘anaviy shaxar mahallalarining tipik karakterini ochishda, ya‘ni idora usullari, boshqaruv tizimini o‘rganishda muhim manbadir [4, – B.52].

O‘rta asrning buyuk mutafakkiri Abu Ali Ibn Sino o‘z asarlarida jamoa bo‘lib yashashning ijtimoiy-ma‘naviy jihatlariga alohida urg‘u beradi. Uning fikricha, “Insonlar jamoa bo‘lib yashashlari uchun o‘zaro muloqotda, turli munosabatda bo‘lishlari, bir-birlarining ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilishlari va umumiy intilish, maqsadga ega bo‘lishlari lozim” [5, – B.167].

### ASOSIY QISM

Amir Temurning “Temur tuzuklari”da o‘rta asrlarda el-ulusni boshqarish, mahalliy boshqaruv tizimining o‘ziga xosligi xususida birmuncha ma‘lumotlar mujassamlashganligi tahsinga loyiq, albatta [6, – B.12, 88, 109, 128]. Movorounnahrda Amir Temur va temuriylar hukmronligi davida mahalliy boshqaruv tuzilmasi o‘z an‘anaviy faoliyatini yanada rivojlantirgan. Bu haqida “Temur tuzuklari” da yozilishicha, sohibqiron o‘zi barpo etgan bepoyon va qudratli saltanatni boshqarishda

davlatning mutasaddi shaxslariga tayangan, ular bilan yaqin muloqotda, doimiy mashvaratda bo'lgan, kezi kelganda ularning faoliyatini bevosita qo'llab quvvatlagan. Jang paytida amir-ul umaro amirlarga, amirlar mingboshilarga, mingboshilar-yuzboshilarga, yuzboshilar-o'nboshilarga boshliq, deb buyruq berdim", deyiladi.

Hukmdor tuzuklarining "Saltanat saroyida o'ltirish va o'rin olish tuzugi"da amir-ul umaro, beklarbegi, amirlar, nuyonlar, ulus, tumanlar, qo'shinlarning sardorlari va amirlar bilan birga ulus oqsoqollari, ya'ni mingboshilar, yuzboshilar, o'nboshilar o'z martabalariga yarasha, chap qo'l tomonda o'tirishlarini ta'kidlaydi va ularning mavqei zarur darajada yuqori ekanligiga ishora qiladi [7, – B.128].

Mahallaning mohiyati, shakllanish tarixi va rivojlanishiga oid bobda o'zbek xalqining bevosita jamoaviy turmush tarzi, madaniyati haqidagi ma'lumotlar negizida XIX asr oxiri XX asr boshlariga oid manbalarni o'rgandik. Zero, bu davrda o'lkada Rossiya imperiyasi hukmronlik qilgan bo'lib, qator rossiyalik tadqiqotchilar, sayyohlar, geograflar Turkiston o'lkasi haqida ma'lumotlar to'plash barobarida, o'lka xalqlari hayotida mahallaning o'rni, ayrim shaharlardagi mahallalar umumiy tavsifi, aholining jamoaviy (mahalla an'analari, qo'ni-qo'shnichilik) turmush tarziga oid ayrim ma'lumotlarni berib o'tganlar [8, – C.398-402]. Xususan, ular qatorida N.L.Sobolyev, A.P.Xoroshkin, K.K.Palen, N.Mayev, A.I.Dobromislov, N.G.Mallitskiy kabi tadqiqotchilar nomlarini keltirishimiz mumkin.

Jumladan, L.N.Sobolyev XIX asr 70-yillari boshida Zarafshon vohasiga qilgan tashriflari chog'ida vohaning qator shaharlarida, xususan, Payshanba, Kattaqo'rg'on, Yangiqo'rg'on, Daxbed, Ofarnikentda, bo'lib, ushbu shaharlar mahallalari, guzarlari, mahallalar aholisi, hovlilari, karvonsaroylari, bozorlari, masjid va madarsalari haqida qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Xususan, muallif vohaning yirik ma'muriy va iqtisodiy markasi bo'lgan Payshanba shahri haqida «Туркестанский сборник» da quyidagi ma'lumotlarni taqdim etgan: Payshanba Kattaqo'rg'ondan 12 km shimolda joylashgan. Shaharda XIX asrda quyidagi guzarlar bo'lgan: Madrasa guzarida 131 ta hovli, Sabzavor guzarida 89 ta hovli, Qadon guzarida 66 ta hovli, Toshkent guzarida 66 ta hovli, Oqmachit (Ko'chaxur) guzarida 104 ta hovli, Girdiqo'rg'on guzarida 31 ta hovli, Qiblamachit guzarida 144 ta hovli, Chitgaron guzarida 70 ta hovli, Sariosiyo guzarida 50 ta hovli, Mundiyo guzarida 43 ta hovli, Yaxudiy guzarida 75 ta hovli bo'lgan. Shahar jami 876 ta hovlidan iborat bo'lgan [9, – C.704-705].

Yoki Yangiqo'rg'on shahri mahallalarida jami 170 ta hovli bo'lib, aholisining asosiy qismi dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Ular o'zlari yetishtirgan mahsulotlarni Yangiqo'rg'on va boshqa yaqin atrofdagi bozorlarda sotganlar [10, – C.575-576]. Muallifning bergan ma'lumotlari asosida XIX asr so'ngiga kelib Zarafshon vohasi shaharlaridagi mahallalar, ulardagi aholi va hovlilar soni, savdo rastalari, bozorlar ko'payib, o'ziga xos rivojlanish yo'lidan borganligini tasdiklaydi. Ushbu ma'lumotlar bilan tanishish bizning tadqiqot mavzuumizni tarixiy jihatdan manbaviy asosini boyitishga xizmat qilganligini ko'rsatdi.

Ushbu tarixiy davrda mahalliy xalqlar turmush tarzida urug-jamoaviy masalalar, oila va nikoh masalalari, hududiy qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari A.P.Xoroshkinning o'sha paytda o'lkada chop etilgan «Туркестанские ведомости» gazetasidagi ayrim maqolalarida uchraydi. Shu o'rinda muallif mahalliy xalqlar urf-odatlarini va turmush tarzida muhim rol o'ynagan turli oilaviy va boshqa marosimlardagi urug'chilik an'analari, jamoaviy aloqalar, xususan, nikoh to'yidagi sovchilik, qalin turlari, uning qiymati kabi masalalarga e'tibor qaratadi [11]. Muallif, shuningdek, o'sha kezlarda Turkiston o'lkasi haqida chop etilgan «Сборник статей, касающихся до Туркестанского края» nomli to'plamda «Очерки Ташкента» nomli maqola chop ettiradi. Maqolada muallif Toshkentning siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotiga, jumladan, Toshkent shahri ayrim mahallalarining XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi hayotiga oid umumiy ma'lumotlarni berib o'tgan. Albatta, shuni qayd etish zarurki, o'sha davrda imperiya hokimiyatining o'lkada olib borgan siyosati va mafkurasi bevosita mualliflar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarga, xususan, aholi turmush tarzi bilan bog'lik tarixiy tadqiqotlarga ta'sir etgan bo'lsada, biz ushbu tadqiqotlarning natijalariga tayangan holda, o'sha davrga xos o'zbek xalqining jamoaviy turmush tarzi haqida birmuncha tasavvurlar hosil qilishimiz mumkin.

XIX asrning oxirlariga kelib, o'lkaga tashrif buyurgan rossiyalik tadqiqotchilarga mahalliy xalqlar turmush tarzi, tarixiy-madaniy o'tmishi, tili va urf-odatlarini o'rganish va tadqiq etish vazifasi qo'yilgan edi. Shu asosda o'lkada rossiyalik olimlar tomonidan turli sohalarda, jumladan, o'zbeklar jamoaviy turmush tarzini o'rganish yuzasidan chora- tadbirlar belgilangan va amaliy ishlar yo'lga qo'yilgan. Ana shunday izlanishlar qatorida K.K.Palenning taqdim etgan tekshiruv hisobotlari birmuncha e'tiborga molikdir.

Muallif mahalliy xalqlar turmush tarzini, jumladan, o'lka ma'muriy, siyosiy tuzilmalari hamda mahalliy boshqaruv tizimini tadqiq etar ekan, Turkiston o'lkasini taftish qilishga oid yozgan hisobotlarida mahalla, qishloq va ovul jamoalarini boshqargan raislarning faoliyatiga ham to'xtalib o'tadi va ko'p o'rinlarda mahalliy boshqaruv tizmi, jumladan, qishloq oqsoqolliklari, ularning ish faoliyati, shahar va markaziy ma'muriy hokimiyat tuzilmalari doirasidagi ish tizimi kabi masalalarga murojaat etadi [12, – C.4-5]. Ya'ni, muallif yozgan hisobotlar ko'pincha ma'muriy, ma'muriy-siyosiy xarakterda bo'lganligi bois, u taqdim etgan ma'lumotlari mahalliy xalqlar turmush tarzini, jumladan, o'sha davrdagi o'lka xalqlari xayotining tarixiy xususiyatlari, shahar mahallalarining ijtimoiy-ma'naviy holati, tarixiy-madaniy jihatlarini unchalik aks ettirmaydi.

Mavzuning tarixiy jihatlarini yoritishda XIX asr oxiri XX asr boshlarida izlanishlar olib borgan rus tadqiqotchilaridan biri N. Mayevning ishlari alohida o'rin egallaydi. Bu borada muallifning «Туркестанский сборник» da chop etgan «Азиатский Ташкент» maqolasi anchagina e'tiborga molik bo'lib, unda Toshkent shahri mahallalari va ularda mahalliy aholining turmush tarzi, mahallalarning soni, topografik xususiyatlari yoritilgan [13, – Б.44].

Muallifning yozishicha, 1876-yil Toshkent shahrida 149 ta mahalla bo'lgan. U shahardagi ko'pchilik mahallalar va ularning nomlarini dahalar bo'yicha qayd etgan. Mazkur mahallalardan 48 tasi Shayxontoxurda, 38 tasi Sebzorda, 31 tasi Ko'kchada, 32 tasi Beshyog'och dahasida joylashganligini uqtiradi. Muallif fikricha, mahallalar soni bundanda ko'proq bo'lgan bo'lishi ham mumkin. Chunki, XX asr boshlarida shaharda 280 ga yaqin mahalla bo'lgan va bu yerda jami 170 dan ortiq mavze nomlari keltirilgan. Ulardan 70 ta mahalla va 31 ta mavze Shayxontohurda, 79 ta mahalla va 36 ta mavze Beshyog'och dahasida bo'lganligi muallif tomonidan qayd qilingan [14, – C.260-271]. Bu borada muallif qator statistik ma'lumotlarni taqdim etadi, ammo, u shahardagi toponimlar, mikrotoponimlar soni, ularning joylashishi, ijtimoiy-iqtisodiy holati kabilarni bayon etar ekan, mahallalarning tarixi, madaniyati, aholining jamoaviy xayoti kabi masalalarga murojaat etmasada, mazkur maqola shahar mahallalarining tarixiy asoslarini o'rganishda, ayniksa, e'tiborga molikdir.

Tadqiqotlarga ko'ra, tarixiy manba va adabiyotlarning guvohlik berishicha, ushbu davrda o'lkaning chekka hududlariga nisbatan albatta Turkiston o'lkasining markaziy shaharlari, jumladan, Toshkent shahriga ko'proq e'tibor qaratilgani bejiz emas. Chunki, aynan XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib, shaharda qator olimlar tomonidan arxeologik, topografik, toponimik yo'nalishda ilmiy izlanishlar va o'rganishlar olib borila boshlangan. Ana shunday tadqiqotlar qatorida A.I.Dobromislovning shahar tarixi, ma'muriy bo'linishi, mahallalarning joylashuv xususiyatlari, mahallalarda aholining xo'jalik-madaniy hayoti, hunarmandchiligi haqidagi ma'lumotlari anchagina tarixiy qimmatga ega [15, – C.80-420].

O'rganilgan tarixiy-etnografik manbalar va materiallar tahlilidan shuni anglash mumkinki, Rossiya imperiyasi hukmronligi yillarida mavzuga taalluqli materiallar juda kam va uzuq-yuluq xarakterda bo'lsada, ularning manbaviy asosini o'rganish shuni ko'rsatdiki, biz yukorida qayd etgan tadqiqotchilar asarlari mahallaning o'sha davrdagi tipik xarakterini yoritishda muhim manba bo'la oladi, albatta. Ammo, mualliflar mahallaning mohiyati, uning an'anaviy vazifasi, ijtimoiy asoslarini va mahalliy boshqaruvning ba'zi xususiyatlarni yoritir ekanlar, mintaqaning mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olmagan holda ish yuritganliklarini anglash qiyin emas.

Shubhasiz, XIX asr so'nggi choragi XX asr boshlariga oid adabiyotlarda o'zbeklarda shahar mahalla uyushmasi, mahallalar tavsifiga oid tegishli ma'lumotlar nafaqat o'sha davr uchun, balki bugungi kunda ham o'z mohiyat va e'tibori bilan ahamiyatlidir. Shunday tadqiqotlar qatoriga N.G.Mallitskiyning «Махалья и мауза города Ташкента» nomli asarini keltirish mumkin. Muallif o'z asarida shaharning ko'plab mahallalari qatori dahalariga ham tavsif beradi. Masalan, nafaqat o'rta

asrlarda, balki XX asr boshlarida ham dahalar mahalladan kattaroq ma'muriy tuzilma bo'lganligi, shaharda bitta daha tarkibida bir nechta mahallalar bo'lganligi qayd etilgan. Aslida "daxa" so'zi qadimgi so'g'd tilida "deha", ya'ni qishloq ma'nosini bildirib, shaharning ma'lum qismi, ma'muriy bo'linishi kabi ma'nolarda qo'llanilgan. Bunday dahalar O'rta Osiyoning Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Buxoro, Termiz, Xo'jand, Farg'ona, Karmana, Nurota kabi shaharlarida mavjud bo'lgan. Masalan, Toshkent shahrida aholining ortishi, uning xududi kengayishi natijasida dahalar ham kengayib borgan. Birgina XX asrning 20-yillarida shaharda Beshyog'och (Zangiota), Sebzor (Qaffol Shoshiy), Ko'kcha (Shayx Zayniddin) va Shayxontohur dahalari bo'lgan [16, – C.24-27].

Muallifning qayd qilishicha, so'nggi o'rta asrlarda dahalar mahalla yig'inlari oqsoqollari va kengash a'zolarining qurultoyida saylangan daha oqsoqollari tomonidan boshqarilgan. XIX-XX asr oxirlarida Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi tomonidan to'la zabt etilgach, shahar kengashi va tumanlarning oqsoqollari Turkiston harbiy gubernatori tomonidan tayinlanadigan bosh oqsoqolga bo'ysunganlar. Bosh oqsoqolga kuyi politsiya xizmatchilari - mirshablar, shahar sug'orish tizimlarining boshliqlari, ya'ni miroblar hamda qozilar va biylar tobe bo'lganlar. Ularning barchasiga alohida to'plangan mablag' hisobidan maosh to'langan. Shaharlarning yevropalik aholisi yashaydigan qismlarida ma'muriyat harbiy gubernatorlar tomonidan tayinlangan [17, – C.3-4]. Demak, mahalla hamda qishloq jamoasi tarkibi va vazifalari bir-biriga o'xshash bo'lib, unda kishilarning ma'lum hududiy hamda etnik prinsiplar asosidagi o'zaro yaqin aloqalari alohida ahamiyat kasb etgan.

Mavzu tarixshunosligining uchinchi guruhida bevosita sovet davrida olim va tadqiqotchilarning mahalla tarixiga oid qarashlari, ularning asarlarida o'sha davrda mahalla masalasining yoritilganligiga e'tibor qaratildi. Jumladan, XX asrning 20-30-yillaridan boshlab Turkiston o'lkasi xalqlarining turmush tarzi masalasi qator tadqiqotchilar e'tiborida bo'lib, ular o'zbek xalq turmush tarzida mahallaga xos munosabatlarni umumiy tarzda emas, balki alohida olingan mintaqalar doirasida o'rgana boshlaganliklari e'tiborga molikdir.

XX asrning 20-30-yillaridan boshlab sovet davri tarixshunosligida tadqiq etilayotgan masalaning u yoki bu jihatlari ba'zi tadqiqotchilar ishlarida ham uchraydi. Masalan, A.L.Troitskaya tomonidan mahallada ayrim urf-odatlar hamda rasm-rusumlarni bajarish masalalari Toshkent shahri, Chimkent uyezdi va Zarafshon vohasi misolida, O.A.Suxaryeva tomonidan tojiklarda to'y marosimlari Zarafshon vohasi va Samarqand shahri misolida yoritilar ekan, mazkur marosimlarda qon-qarindoshlar, ayollarning jamoadagi funksiyalari va xududiy qo'ni-qo'shnilarning alohida funksiyasiga baho beradilar [18, – C.139-142]. Vaholanki, mahallada oilaviy marosimlarni o'tkazish jamoaviy xarakter kasb etib, bu jamoadagi barcha oilalarni birlashtirar edi. Chunki jamoa a'zolari o'z vazifa va funksiyalaridan kelib chiqib, o'g'il uylantirish yoki qizini turmushga berish borasida qo'ni-qo'shnilik aloqalari, to'y, qalin kelishuvlariga qat'iy amal qilganlar [19, – C.173-176].

Bu, shubhasiz, nafaqat o'zbeklar, balki O'rta Osiyoning boshqa xalqlarining o'sha tarixiy davrdagi ijtimoiy-ma'naviy ahvoli haqida ayrim ma'lumotlar olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalaning ba'zi qirralari ushbu davrdagi ilmiy yondashuvlar asosidagi tarixiy-etnografik tadqiqotlarda, mahallaning tarixiy asoslari, ijtimoiy ahvoli, demografik taraqqiyoti, o'zbeklar turmush tarzida jamoaviy an'analar, unda qo'ni-qo'shnilik munosabatlari, turli an'anaviy va zamonaviy marosimlarni o'tkazishda mahalla a'zolarining Ishtiroki kabi masalalar yuzasidan yangi nazariy qarashlar paydo bo'ldi.

Oilaviy va jamoaviy mehnat guruhlarini tashkil etish shakllaridan biri xo'jalikda bir qancha oila, qarindosh guruhlar, ular tarkibidagi doimiy mehnat munosabatlari, xo'jalik turmush tarziga taalluqli aloqalar, mehnatni tashkil etish shakllari, shuningdek, ushbu guruhlarining qishloq jamoalari tarkibidagi jamoat birlashmalari sifatidagi faoliyati R.Ya.Rassudova tadqiqotlarida uchraydi [20, – C.37-38]. Tabiiyki, o'sha kezlarda mavjud bo'lgan har qanday mafkuraviy andozalarga qaramasdan, o'zbeklar an'anaviy turmush tarzidagi jamoa munosabatlarining xo'jalik, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy-ma'naviy xususiyatlariga oid qarashlari, shubhasiz, muallif ishlarida xolislik, ilmiylik va nazariy-konseptual yondashuvlar majudligini tasdiqlaydi. Jamoada an'anaviy erkaklar yig'ini, ya'ni jo'ra, ulfatchilik asosida tashkil etilgan gap va gashtak tadbirlarining an'anaviy xususiyatlari, ayniqsa, uning tarixiy, ijtimoiy jihatlari haqida izlanishlar olib borgan G.P.Snesaryev ushbu tadbirning,

asosan, oʻrta va katta yoshdagilar orasida birdek oʻtkazib kelinganligini, unda nafaqat oila, yaqin birodarlar hayotiga oid muammolar, balki butun jamoa, davlat va jamiyat ijtimoiy hayotiga oid masalalar yechim topganligiga urgʻu beradi [21, – C.24-25]. Muallifning yozishicha, mazkur tadbir mintaqaning, asosan, oʻtroq mahalliy xalqlariga xos tadbir sifatida, uning xonadonlarda, aksariyat hollarda shahar va qishloqlarning gavjum yerida yoki mahalla guzarlarida oʻtkazilib, erkaklar boʻsh vaqtlarini birgalikda oʻtkazadigan marosim hisoblanganligiga eʼtibor qaratadi.

Demak, oʻtmishda oʻziga xos maʼnaviy-axloqiy tarbiya tadbirlari hisoblangan, erkaklar orasida oʻtkazib kelingan anʼanaviy “gap” lar oʻtkaziladigan joylar shahardagi mahalla guzarlari va choyxonalar boʻlgan. Muallifning yozishicha, bunday yigʻinlar odatda ziyofat sifatida oʻz davrida anʼanaviy erkaklar yigʻinining alohida turi boʻlib, oila va jamoada odamlarni ijtimoiy uyushtirishning dastlabki formalaridan biri boʻlgan. Shu oʻrinda muallif oʻz tadqiqotlarining birida Oʻrta Osiyo xalqlarida sunnat toʻyi marosimining oʻtkazilishida mahalla aʼzolarining marosimlardagi oʻrni kabi masalalarga ham toʻxtaladi [22, – C.257-274]. Muallifning tadqiqotlari oʻz mohiyatiga koʻra tarixiy qimmatga ega boʻlganligi bois, bizning tadqiqotda mahallaning tarixiy, nazariy-konseptual jihatlarini ochishda yordam berdi.

XX asr ikkinchi yarmidagi tadqiqotlar orasida mahalla uyushmasini “shahar ichidagi shahar” sifatida taʼriflagan O.A.Suxaryeva Buxoro shahri misolida shahar mahallaridagi aholining XIX asr oxiri XX asr birinchi choragidagi hayotini oʻzining «Квартальная община позднефеодального города Бухары» nomli asarida yoritadi. Asarda shaharning maʼmuriy boʻlinishi, ayniqsa, uning tarkibidagi mahallalar, mahallalarning tarkibiy tuzilmasi, boshqaruv tizimi umumiy tarzda hamjamiyat (квартальная община, сообщество) sifatida tahlil qilinishi yanada eʼtiborga molikdir. Asarda aksariyat Buxoro shahri mahallalarining toʻliq tavsifi beriladi, ularning tarixiy tahlilini qator tarixiy manbalarga asoslangan holda tavsiflaydi. Muallifning qayd etishicha, tarixiy manbalar shahar mahallalarining ilk koʻrinishlari xususida guvohlik berishini alohida qayd etadi. Asosiysi, muallif feodal shaharning rivojlanishi asrlar davomida aholi sonining oʻsishi va shahar atrofidagi qishloqlarning shahar mahallalari tarkibiga kirishi, yaʼni shaharga muntazam ravishda qoʻshilganligi sababli, shahar chegaralarining kengayishi mahallalarni alohida turkumlash va aniqlashda yanada kengroq ifodalanganligini taʼkidlaydi [23, – C.22-271].

Ushbu monografiya sovet davri tarixshunosligida XX asr 70-yillaridagi tadqiqotlar orasida soʻnggi oʻrta asrlardagi shahar mahallalarining tavsifiga bagʻishlangan oʻziga xos tadqiqotdir. Oʻz oʻrnida, muallif Oʻzbekistonda soʻnggi oʻrta asrlarga xos shahar va qishloq aholisi mashgʻulotlarining oʻzaro nisbati masalasiga ham eʼtibor qaratadi [24, – C.30-43]. Demak, oʻtmishda oʻziga xos maʼnaviy-axloqiy tarbiya tadbirlari hisoblangan, erkaklar orasida oʻtkazib kelingan anʼanaviy “gap” lar oʻtkaziladigan joylar shahardagi mahalla guzarlari va choyxonalar boʻlgan. Muallifning yozishicha, bunday yigʻinlar odatda ziyofat sifatida oʻz davrida anʼanaviy erkaklar yigʻinining alohida turi boʻlib, oila va jamoada odamlarni ijtimoiy uyushtirishning dastlabki formalaridan biri boʻlgan. Shu oʻrinda, muallif oʻz tadqiqotlarining birida Oʻrta Osiyo xalqlarida sunnat toʻyi marosimining oʻtkazilishida mahalla aʼzolarining marosimlardagi oʻrni kabi masalalarga ham toʻxtaladi [25, – C.257-274]. Muallifning tadqiqotlari oʻz mohiyatiga koʻra tarixiy qimmatga ega boʻlganligi bois, bizning tadqiqotda mahallaning tarixiy, nazariy-konseptual jihatlarini ochishda yordam berdi.

Shuningdek, kitobda Buxoro shahrining oʻrta asr tarixiy-madaniy shart-sharoitlar bilan bogʻliq xususiyatlari, mahallalarning ijtimoiy-maʼnaviy va moddiy hayoti, ayniqsa, shahar guzarlari, undagi mahallalar soni, roʻyxati, xonadonlar, yaʼni hovlilar soni, chorbogʻlari, suv inshootlari, hovuzlari, savdo-hunarmandchiligi, aholining mashgʻulot turlari, savdo doʻkonlari, bozorlari, ularning topografik xususiyatlari, mahallalardagi koʻchalar, shahar darvozalari haqida ham qimmatli maʼlumotlar mujassamlashganligi diqqatga sazovordir [26, – C.9-278].

Muallif tomonidan Buxoro shahri mahallalari-aholi markazlashib yashaydigan mikrohududlar sifatida, ishlab chiqarish markazlari, madaniy markazlar, muntazam savdo- sotiq va hunarmandchilik vazifalarini bajaruvchi oʻziga xos tuzilma sifatida kuzatiladi va talqin qilinadi.

Mahalla ijtimoiy-iqtisodiy hayotining u yoki bu jihatlarini tarixiy-etnografik yoʻnalishda, jumladan, ilk marotaba Markaziy Osiyo va Qozogʻiston xalqlari jamoa anʼanalarini tadqiq etgan

hamda o‘z asarida ko‘chmanchi chorvador va o‘troq aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va faoliyatining muhim xususiyatlari borasida, ya’ni Markaziy Osiyo va Qozog‘istonning Rossiya tarkibiga kirishidan oldingi mintaqa xalqlaridagi ijtimoiy munosabatlar va etnogenetik jarayonlar masalasida izlanishlar olib borgan S.P.Polyakov shahar va qishloq jamoasiga alohida boshlangich ijtimoiy tashkilot sifatida qaraydi [27, – С.107-122].

Muallif o‘z tadqiqotlarida qator arxeologik, etnografik va tarixiy ma’lumotlarga tayanadi va ushbu yo‘nalishda jamoaning jamiyat va xo‘jalik hayotidagi o‘rniga to‘xtaladi. Muallifni Markaziy Osiyo mintakasining ma’muriy tuzilishi, xalqlarining xo‘jalik hayoti, sug‘orma, lalmi dexqonchiligi, chorvachiligi, xaydov chorvachiligi, yarim o‘troq xo‘jaligi, hunarmandchilik sohalari, uy hunarmandchiligi sohalari qatorida mintaqa o‘troq va yarim o‘troq aholisining an’anaviy ijtimoiy uyushmasi, qishloq, ovul jamoasi, umuman jamoa (mahalla) masalalari qiziqtiradi. Muallif mazkur ma’lumotlarni mahalliy xalqlarning etnomadaniy hayoti, ayniqsa, chorvador va o‘troq dexqon jamoalaridagi umumiy etnik xususiyatlariga o‘zaro sezilarli ta’sir ko‘rsatgan turmush tarzi jamiyatning iqtisodiyoti va ijtimoiy tuzilmasining hal qiluvchi jihatlariga alohida e’tibor qaratgan «Историческая этнография Средней Азии и Казахстана» nomli qo‘llanmasida taqdim etgan. Qayd etilgan materiallar tadqiqotchilarni O‘rta Osiyo xalqlari umumiy, yagona tarixi negizida, ular madaniyati bilan tanishtirish va tegishli ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishga undashi bilan xarakterlidir.

Mavzuga taalluqli asarlar qatorida XX asr 80-yillaridagi tadqiqotchilardan A.O‘rinboyev, O.Bo‘riyevlar o‘zlarining “Toshkent Muhammad Solih tavsifida” nomli asarida shaharning tarixiy-etnografik jihatlariga tavsif beradilar. Jumladan, ular shaharning o‘sha davrdagi to‘rt dahasi, bozorlar, aholining xo‘jaligi, turmush tarzi xususida anchagina muhim ma’lumotlarni bayon qiladilar. Xususan, ular shaharning yirik maydonlaridagi asosiy savdo markazlarini shunday ta’riflaydilar: “Bozorning do‘kon rastalari Chorsudagi kandolatpazlik do‘konigacha davom etadi. Ramazon oyida bu yerda kechasi ham bozor bo‘ladi, xalq savdo-sotiq, har xil o‘yin- kulgular qilar edilar” [28, – В.84].

Tabiiyki, o‘zbek xalqi oilaviy marosimlari, xalq bayram va tomoshalarida mahalla a’zolarining o‘rni va vazifalariga oid fikrlar mafkuraviy qarashlar zahirida bo‘lsada, o‘z e’tibori bilan qimmatli bo‘lgan. Shu bois, qator asarlarda mazkur masalaga oid fikrlar nisbatan xolisona o‘z aksini topgan edi.

An’anaviy o‘zbek xalqi to‘ylari va nikoh marosimlari mavzusida izlanishlar olib borgan N.P.Lobachyova ishlarida sovet mafkurasi ta’siriga qaramasdan, bir oz bo‘lsa-da xolislik sezilib turadi. Muallif o‘z maqolalarida marosimlar mohiyatini tahlil etar ekan, yangicha sharoitda mahallaning vazifalari va oilaviy marosimlarning tarixiy-tadrijiy rivojlanishi, hududiy qo‘ni-qo‘shnilarning oilaviy marosimlardagi o‘rni, yosh xususiyatlariga ko‘ra tengqurlar va oila a’zolarining funksiyasiga xolisona baho beradi [29, – С.55-63].

O‘zbeklarda yangi marosimlarni an’anaviy marosimlar bilan uyg‘un holda o‘rgangan muallif, har bir mintaqadagi etnomadaniy muhit hamda xalqning o‘ziga xos etnik xususiyatlarini ham e’tiborga olish muhimligini ta’kidlaydi. “Hozirgacha O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlari an’anaviy oilaviy marosimlarining qisqargan yoki o‘zgargan shakllarida oila va jamoa o‘rtasidagi aloqalar, oila-nikoh muno- sabatlarida milliy an’analarning tarixiy ildizlari saklanib kelmoqdaki, bunda o‘zbek xalqiga xos mahalla jamoasining o‘ziga xos o‘rni bor” [30, – С.211], deb yozadi muallif.

O‘zbekiston mustaqilligining qo‘lga kiritilishi xalqimiz tarixiy-madaniy hayotida ulkan burilish bo‘ldi va tarix tadqiqotlari bo‘yicha yangicha qarashlar asosida tadqiqotlar olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Mavzu tarixshunosligining to‘rtinchi guruhi aynan mustaqillik davriga oid bo‘lib, jumladan, bu davrda mahallaning maqomi qayta tiklandi, unga doir tarixiy tadqiqotlar doirasi kengayib, o‘zini o‘zi boshqarishning an’anaviy shakllari tiklana boshladi.

Xususan, etnolog olimi Z.X.Arifxanova rahbarligida o‘zbek xalqi tarixi va turmush tarzida yuksak o‘ringa ega bo‘lgan mahalla tuzilmasining an’anaviy va zamonaviy xususiyatlari doirasida yozilgan “Toshkent mahallalari: an’analar va zamonaviylik” asari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Unda o‘tmishda va hozirgi davrda mahallalar faoliyati an’anaviy va zamonaviy o‘zbek mahallalari faoliyati misolida tarixiy-etnologik nuqtayi nazardan o‘rganilganligi e’tiborga molikdir. Asarda

Toshkent mahallalarining an'anaviy hayoti, mahallaning bugungi kundagi zamonaviy faoliyati, o'zbek xalqi uchun muhim bo'lgan ikki ijtimoiy tuzilma: oila va mahallaning o'zaro ta'siri, shuningdek, shaharliklarning moddiy madaniyatida ro'y bergan o'zgarishlar ko'rib chiqilgan, mahallaning eng muhim vazifalaridan biri rasm-rusumlar va ularning o'zgarishi tahlil etiladi, o'sib kelayotgan yosh-avlodni tarbiyalash, shaxsning shakllanishi, an'anaviy ma'naviy axloqiy me'yorlar va millatga xos odob qoidalarini saqlashda mahallaning roliga alohida e'tibor qaratilgan.

Ushbu kitob milliy mafkuraning konseptual dunyoqarash prinsiplariga, o'zbek xalqi etnik shakllanishining tarixiy o'ziga xos yo'li va ma'naviy-madaniy merosga tayangan holda yangicha metodologik asosda yozilgan. Uning uslubiy asosini mavzuga sinfiyformatsiyaviy emas, balki umummadaniy yondashuv tashkil etadi. Masala talqinidagi yangilik shundaki, mahalla xalq hokimiyati va an'anaviylik tamoyillariga asoslangan Sharq jamiyatining qonuniy xodisasi sifatida ko'rib chiqilganligi yanada e'tiborga molikdir [31]. Olimaning yana bir qancha ishlarida Toshkent shahar etnik muhitiga xos mahalla-ko'y, qo'ni-qo'shnicilik, oilaviy marosimlarni o'tkazishda o'zbeklarga xos sharqona urf-odatlar, erkaklarning an'naviy yig'inlari va ularning ijtimoiy xarakter kasb etishi yoritiladi [32, – B.71-82]. O'zbek jamiyati ijtimoiy tuzilishining o'ziga xosligi har biri alohida olingan shaxsning hayotida uning atrofidagi yaqin kishilari, qarindoshlari, qo'ni-qo'shnilari o'rtasida munosabatlarning samimiyligi bilan bog'liq. Bu munosabatlarni muvofiqlashtirib turish uchun ijtimoiy munosabatlarning butun bir tizimi faoliyat ko'rsatadi. Ular qatorida aholining barcha qatlamlarini qamrab oluvchi oilaviy qarindoshlik, jamoaviy qo'shnicilik, shuningdek, aholining alohida guruhlarini birlashtiruvchi bir kasb-kordagi kishilar, turli millatlarga mansub fuqarolar, diniy toifalar, bir xil yoshdagilar va boshqalararo munosabatlar mavjud [33, – B.71-82].

Shuningdek, mustaqillik yillariga oid izlanishlar qatorida biz tadqiq etayotgan masalaning yana muhim tarixiy jihatlari, ya'ni o'lkada ilk davlatchilikda mahalliy boshqaruv masalalariga yangicha talqin va yondashuvlar B.Eshov [34] tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan bo'lsa, oila va jamiyat hayotida xotin-qizlar muammolari R.Murtazayeva [35, – B.10-17] ilmiy izlanishlarining mahsulidir.

Tadqiqotchi G.Umarova "O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlarining shakllanishi va takomillashtirish tarixi" nomli dissertatsiyasida o'zini o'zi boshqarish organlari tarixini faqat 1991-2001-yillarga oid tarixiy davr doirasida o'rgangan. Unda muallif mahallaning mustaqillik yillaridagi tarixini o'rganar ekan, uning ijtimoiy, siyosiy xayotdagi ishtiroki, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy maqomi, mahallaning an'anaviy boshqaruv tizimi va transformatsiyasiga urg'u beradi. Xususan, mahallada ijtimoiy himoya masalalari, rais va ularning yordamchilarining ma'naviy, siyosiy bilim darajalarini yuksaltirish mexanizmlari kabi jihatlarni ko'plab faktlar asosida yoritadi [36, – B.12-14].

Tarixiy yondashuv tahlili nuqtayi nazaridan uchinchi guruhga oid manbalarni tahlil qilar ekanmiz, O'zbekiston mustaqilligi yillarida mahalla tizimining tarixiy-huquqiy asoslari aks etgan materiallar va adabiyotlar tashkil kilishini ham ta'kidlash lozim. Ular qatorida G.Malikova tomonidan amalga oshirilgan alohida ilmiy-tadqiqot ishini qayd etish o'rinli [37, – B.159]. Unda muallif mahallaning tarixi, Rossiya imperiyasi, sovet davrida mahalla tizimining faoliyati, jumladan, sovet hokimiyati tashkil topishining dastlabki yillarida, 1932-1940-yillarda hamda ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillarda mahallaning faoliyatiga e'tibor qaratadi. Muallif 1950-1990-yillarda mahallaning davlat va jamiyat xayotidagi o'rni, O'zbekiston mustaqilligi yillarida mahallaning tarixiy hamda huquqiy faoliyati masalalarini o'rganishga harakat qiladi. Muallif ishi qadimgi davrdan to bugungi kungacha bo'lgan keng qamrovli tarixiy davrni qamrab olgan bo'lib, unda muallif mahalliy o'zini o'zi boshqarish tuzilmasining ko'proq tashkiliy-huquqiy masalalariga urg'u beradi.

Z.Ro'ziyev tadqiqotida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlarini yanada kengaytirishga, ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini lashtirishga, davlatning ayrim vakolatlarini bosqichma-bosqich fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazish borasidagi ilmiy ma'lumotlari yanada diqqatga sazovordir [38]. Muallif ilmiy ishida, o'z navbatida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakolatlari rivojlanishining zamonaviy bosqichlarini aniqlash, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy-ma'rifiy sohalardagi vakolatlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining huquq-tartibot,

mudofaa va xavfsizlikni ta'minlash, ekologiya, shaharsozlik, kommunal va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish sohasidagi vakolatlarini takomillashtirish yuzasidan alohida olingan dissertatsion tadqiqotni amalga oshirgan. Unda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari sohasidagi xalqaro standartlar va xorijiy mamlakatlar qonun hujjatlari asosida milliy qonun hujjatlarini takomillashtirish, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy bazasini yanada takomillashtirish va ular vakolatlarini kengaytirish yuzasidan keng kamrovli ilmiy ma'lumotlar mujassamlashgan.

### XULOSA

Bugun O'zbekistonda mahalla instituti transformatsiyalashuvi jarayonlari tarixiy bosqichlardan o'tib kelmoqda. Mahalla instituti faoliyati takomillashib aholi turmush darajasini yaxshilashga bo'lgan ma'sulyati oshib bormoqda va vakolat doirasi va xizmat ko'rsatish sohasida ham sezilarli ishlar amalga oshirilmogda. Xususan, 2023-yilning 27-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida mahallabay ishlash tizimini kuchaytirish yuzasidan videoselektor o'tkazdi. Videoselektorda davlatimiz rahbari quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratdilar.

“Mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi hamda profilaktika inspektoridan iborat “beshlik tizimi” tashkil etildi. Lekin ularning o'zaro muvofiq ishlashida kamchiliklar, juda ko'p takrorlanishlar bor. Ijtimoiy maqsaddagi mablag'lar ba'zan samarasiz yo'naltirilyapti. Ehtiyojmand aholining masalasini hal qilish viloyat va respublika idorasiga bog'lanib qolgan. Mahalla xodimlari faoliyatini baholash mezonini yo'q. Ularning ko'p vaqti “qog'oz to'ldirish” va majlislarga ketyapti”, dedi Prezident [39].

Mahalla institutini faoliyatining samaradorligini oshirish albatda aholing munosib turmush kechirish faoliyatini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosatning bir ko'rinishidir. Mahalla institutini tarixiy o'rganish biz tadqiqotchilarda o'tmish va bugungi mahallaga doir sotsiologik masalalarga ilmiy yondashuvlar orqali yechim topishga olib keladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shundan dalolat bermoqdaki, mazkur mavzu olimlar tomonidan tarixiy nuqtayi nazardan alohida tadqiqot sifatida yagona tizim asosida o'rganilmagan. Ko'rsatilgan adabiyotlarda mualliflar ko'tarilgan muammoni o'z yo'nalishlari va tadqiqot obyektlari doirasida tavsiflab o'tganlar, xolos. Shu bois ilmiy adabiyotlarga tayangan holda mahallaning shakllanishi va taraqqiyoti masalasini keng qamrovli tadqiq etish va muntazam ravishda boyitib borish zarurati yuzaga kelgan, deb aytish mumkin.

### Adabiyotlar/Literatura/ References:

1. Маколевский А.О. Авеста. – Баку, 1960. – С. 89-92.
2. Маколевский А.О. Авеста. – Баку, 1960. – С. 89.
3. Ишқуватов В, Толипов Ф. Маҳалла: ўтмишда ва бугун. – Тошкент: Наврўз, 2014. – Б. 10.
4. Абу Бақр Муҳаммад Ибн Жаъфар ан Наршахий Бухоро шаҳри. – Тошкент, 1993. – Б. 52.
5. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. – Т.: Ўзбекистон, 1995. – Б. 167.
6. Темур тузуклари. – Тошкент, 2020. – Б. 12, 88, 109, 128.
7. Темур тузуклари. – Тошкент, 2020. – Б. 128.
8. Хорошхин А.П. Историко-этнографические этюды. Народы Средней Азии // Туркестанские ведомости. 1871, №1. Хорошхин А.П. Кызыл-кумский дневник // Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. – Спб., 1876. – С. 398-402.
9. Соболев Л.Н. Список населенных мест Зерафшанского округа // Туркестанский сборник, Спб., 1873, Ташкент: – С. 704-705.
10. Соболев Л.Н. Список населенных мест Зерафшанского округа // Туркестанский сборник, Спб., 1873, Ташкент: – С. 575-576.
11. Хорошхин А.П. Историко-этнографические этюды. Народы Средней Азии // Туркестанские ведомости. 1871, №1.
12. Пален К.К. Отчёт по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению Се-на-торомъ Гофмейстеромъ К.К. Паленомъ. // Сельское управление: Русское и туземное. – Спб., 1910. – С. 4-5.

13. Ўзбекистон маҳаллалари: кеча ва бугун [Матн] / Н.М. Эгамбердиева [ва бошқ.]. – Тошкент: INVEST BOOK, 2022. – Б. 44.
14. Маев Н. Азиатский Ташкент. // Туркестанский сборник. – Спб.: Типография В.С.Балашева. 1876. Ташкент: – С. 260-271.
15. Добромислов А. И. Ташкент в прошлом и настоящем. – Ташкент: 1912. – С. 80-420.
16. Маллицкий. Н.Г. Махалля и мауза города Ташкента. – Ташкент: 1927. – С. 24-27.
17. Пален К.К. Отчёт по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению Се-на-торомъ Гофмейстеромъ К.К Паленомъ. Сельское управление: Русское и туземное. – Спб., 1910. – С. 3-4.
18. Троицкая А.Л. Рождение и первые годы жизни ребёнка у таджиков долины Зеравшана // СЭ., 1935. № 6. – С. 109-135; Сухарева О.А. Мать и ребенок у таджиков // Иран. – Ленинград, 1929. – С. 139-142.
19. Сухарева О.А. Свадебные обряды таджиков г. Самарканда и некоторых других районов Средней Азии. // СЭ., 1940. № 3. – С.173-176.
20. Рассудова. Р.Я. Некоторые особенности сельских общин Зерафшанской и Ферганской долин на рубеже XIX-XX вв. // Все союз. археолого-этнографическое совещ. по итогам полевых исследований 1972 года: Тез. докл. и сообщ. по этнографии. – Ташкент, 1973. – С. 37-38; Сельская община в бассейне Нижнего Даргома Зеравшанской долины (конец XIX - начало XX в.) // Страны и народы Востока. М., 1973. Вып. 15: Африка и Азия. – С. 234-247; Хозяйство Каттакурганского уезда Самаркандской области в конце XIX - начале XX в. // ТИЭ. – Л., 1973. Т. 98: Очерки по истории хозяйства народов Средней Азии и Казахстана. – С. 140-153., Рассудова Р. Я Семейные группы: одна из форм организации труда в орошаемых районах Средней Азии (XIX в. первая половина XX в.) // Страны и народы Востока. – М., 1987. – С. 68-87.
21. Снесарев Г.П. О реликтах мужских союзов в истории народов Средней Азии. – М., 1964. – С. 24-25.
22. Снесарев Г.П. К вопросу о происхождении праздника суннаттой в его среднеазитском варианте // Занятия и быт у народов Средней Азии. – Ленинград, 1971. – С. 257-274.
23. Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. - М.: Наука, 1978. – С. 22-271.
24. Сухарева О. А. Традиция сочетания городских и сельских занятий в Средней Азии конца XIX - начала XX в. // Товарно-денежные отношения на Ближнем и Среднем Востоке в эпоху средневековья. – М.: 1979. – С. 30-43.
25. Сухарева О.А. К вопросу о происхождении праздника суннаттой в его среднеазитском варианте // Занятия и быт у народов Средней Азии. Ленинград., 1971. – С. 257-274.
26. Сухарева О.А. Традиция сочетания городских и сельских занятий в Средней Азии конца XIX - начала XX в. // Товарно-денежные отношения на Ближнем и Среднем Востоке в эпоху средневековья. – М., 1979. – С. 9-278.
27. Поляков С.П. Историческая этнография Средней Азии и Казахстана. – Москва, 1980. – С. 107-122.
28. O'rinboyev A. Vo'riyev O. Toshkent Muhammad Solih tavsirida. – Toshkent:1983. – В. 84.
29. Лобачева Н.П. Значение общины (махалля) в жизни семьи (по материалам свадебной обрядности хорезмских узбеков). Этническая история и традиционная культура народов Средней Азии и Казахстана. – Нукус, 1989; Ўша муаллиф. Сверстники и семья (к вопросу о древней половозрастной градации общества у народов Средней Азии и Казахстана) // СЭ, 1989. № 5; Ўша муаллиф. Общественная и семейная обрядность народов Средней Азии и Казахстана. Вторая половина XX века (этнографический аспект) // Расы и народы. – Москва, 2001.; Ўша муаллиф. К истории сложения института свадебной обрядности. (Свадебный обряд хорезмских узбеков) // Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1978; Ўша муаллиф. Что такое свадебный обряд? // ЭО, 1995. № 4. – С. 55-63.

30. Лобачёва Н.П. Общественная и семейная обрядность народов Средней Азии и Казахстана. Вторая половина XX века (этнографический аспект) // Расы и народы. – Москва, 2001. – С. 211.
31. Тошкент маҳаллалари: Анъаналар ва замонавийлик. / Масъул муҳаррир: З.Х. Арифхонова. – Тошкент, 2002.
32. Арифхонова З.Х. Современная жизнь традиционной махалли г.Ташкента. – Тошкент: 2000. – С. 4-31.
33. Арифхонова З.Х. Маҳалла тизимида кариндош оилаларнинг ўзаро муносабатлари // Ўзбекистон тарихи, 2003. – № 3. – Б. 71-82.
34. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи (Биринчи китоб). Тошкент: 2019.
35. Муртазаева Р.Х. Илмли аёл - мустаҳкам оила таянчи. // Минтақавий илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент-Урганч, 2012 йил 13 апрель. – Б. 10-17.
36. Умарова Г. Ўзбекистонда ўзини ўзи бошқариш органларининг шаклланиши ва такомиллаштириш тарихи. (1991-2001 й). Тарих фан номз. дисс. автореферати. – Тошкент, 2002. – Б. 12-14.
37. Маликова Г. Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш институтининг конституциявий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш муаммолари. // Юридик фан. докт. диссертация автореферати. – Тошкент, 2009. – Б.22.
38. Маликова Г. Маҳалла институти ривожланишининг тарихий-ҳуқуқий масалалари. // Монография. – Тошкент, 2017. – Б.159.
39. Рузиев З.Р. Фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг ваколатлари (конституциявий-ҳуқуқий таҳлил). Юрид. фан. доктори дисс. автореферати. – Тошкент., 2016.
40. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/09/27/mahalla/>

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
VOLUME 7, ISSUE 1

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000